



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK: 371.12.85.73:61

XORAZM VILOYATIDA YASHOVCHI O'ZBEK BOLALARINING INDIVIDUAL TIPOLOGIK XUSUSIYATLARINI TAQQOSLAMA TAHLILI (Urganch shahri va Shovot tumani misolida)

Rajapov Sarvarbek Safarboyevich

Urganch davlat tibbiyot instituti Klinik anatomiya va gistologiya kafedrası assistenti

Email: f_callaham11@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0005-4763-1621>



Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati Urganch shahri va Shovot tumanida istiqomat qiluvchi o'zbek bolalarining jismoniy rivojlanish dinamikasini bir yil davomida (2024-2025) ilgari o'rganilgan tahlillar natijasi solishtirilgan va o'zaro korrelyatsiya qilib chiqilgan. Tadqiqotda Xorazm viloyatidaning ikkita subyekti ya'ni Urganch shahri va Shovot tumanining har biridan 20 nafar bolalar (10 nafar o'g'il bolalar, 10 nafar qiz bolalar) ishtirok etgan bo'lib, ularni ikki yosh guruhiga (12 yosh va 14 yosh) bo'lib o'rganildi (jami 40 nafar bolalar).

Kalit so'zlar: Tana vazni, random so'rov, tana konstitusiyasi, yosh guruhi, astenik, normastenik, giperstenik.

СРАВНЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ДЕТЕЙ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОСТИ, ПРОЖИВАЮЩИХ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

(НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА УРГЕНЧ И ШАВАТСКОГО РАЙОНА)

Ражаров Сарварбек Сафарбойевич – ассистент кафедры клинической анатомии и
гистологии Ургенчского государственного медицинского института. Email:

f_callaham11@mail.ru

Аннотация. В данной статье сравниваются и коррелируются результаты ранее проведенных анализов динамики физического развития детей узбекской национальности, проживающих в городе Ургенч и Шаватском районе Хорезмской области, за один учебный год (2024–2025). В исследовании приняли участие 20 детей (10 мальчиков, 10 девочек) из двух субъектов Хорезмской области – города Ургенч и Шаватского района, которые были разделены на две возрастные группы (12 и 14 лет) (всего 40 детей).

Ключевые слова: Масса тела, случайное обследование, конституция тела, возрастная группа, астеник, нормостеник, гиперстеник.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

COMPARISON OF INDIVIDUAL TYPOLOGICAL CHARACTERISTICS OF UZBEK CHILDREN LIVING IN THE KHOREZM REGION (ON THE EXAMPLE OF THE CITY OF URGENCH AND THE SHOVOT DISTRICT)

**Rajapov Sarvarbek Safarboyevich – Assistant of the Department of Clinical Anatomy and
Histology, Urgench State Medical Institute Email: f_callaham11@mail.ru**

Annotation. *This article compares and correlates the results of previously studied analyzes of the dynamics of physical development of Uzbek children living in the city of Urgench and the Shovot district of the Khorezm region for one year (2024-2025). The study involved 20 children (10 boys, 10 girls) from two subjects of the Khorezm region, namely the city of Urgench and the Shovot district, and they were divided into two age groups (12 years and 14 years old) (a total of 40 children).*

Keywords: *Body weight, random survey, body constitution, age group, asthenic, normosthenic, hypersthenic.*

Mavzuning dolzarbligi: Maqolada Xorazm viloyatining ikkita subyekti ya'ni Urganch shahri va Shovot tumanida yashovchi, har biridan 20 nafar 2-bolalik davri va o'smirlik davridagi bolalar random shaklda tanlab o'rganildi. Bu ikkala subyektdan random tarzda tanlangan bolalarni o'rganish va solishtirish bizga atrof-muhitni, turmush tarzini, hayot faoliyatini bolalar konstitutsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga imkon beradi.

Xorazm viloyati markazi Urganch shahri bo'lib u nisbatan iqtisodiyoti sanoatlashgandir jumladan shaharda paxta tozalash, ekskavator, o't o'rish, mashinalar zavodi, "Urganchyog'moy" zavodi, tikuvchilik, pillakashlik, poyabzal fabrikalari faoliyat ko'rsatadi.

Shovot tumani esa markazdan 40 km uzoqlikda joylashgan bo'lib tabiati keskin kontinental qishda o'rtacha harorat – 6 gradus, yozda esa – 27 – 35 gradusgacha bo'lishi mumkin. Iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib turli kichik korxona va mikrofirmalardan iborat.

Material va usullar : Tadqiqotda quyidagi parametrlar olindi: Bo'y (sm), yarim o'tirgandagi bo'yi (sm), teri osti yog' qatlami(mm), vazn (kg), tana tuzilishi tipi (astenik, normastenik, giperstenik) kabilar. Bo'y va vaznni o'lchash bolaning yoshiga nisbatan normal rivojlanayotganligini aniqlashning asosiy ko'rsatkichi hisoblanishi hech kimga sir emas. O'sishning sekinlashishi yoki vazn yo'qotish yomon ovqatlanish, me'da-ichak kasalliklari, gormonal muammolar (masalan, gipotiroidizm) yoki boshqa surunkali kasalliklarning belgisi bo'lishi mumkin. Ortiqcha vazn bolalarda semirish, qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi. Buni erta aniqlash orqali sog'lom turmush tarzini joriy qilish mumkin. Yarim o'tirgandagi bo'yni o'lchash bu usul tananing yuqori qismining o'sishini (tana va bosh aylanasi o'sishi bilan birga) aniqroq aks ettiradi. Bu, ayniqsa, miya va nerv tizimining rivojlanishini baholashda ishlatilishi mumkin. Oddiy tarozi faqat umumiy vaznni ko'rsatadi. Bu vazn yog'mi yoki mushaklarni kamayayotganini farq qilish mushkul masala. Mushak yog'dan og'irroq bo'lgani uchun, mushak massasi oshib, yog' yo'qotilsa, vazn baribir bir xil bo'lib qolishi yoki hatto ortishi mumkin. Teri osti yog'ini o'lchash bizga haqiqiy natijani (yog' miqdorining kamayishi) ko'rsatadi. Ma'lumotlar



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

2024 va 2025 yillarda ikki marta qayd etilgan bo'lib retrospektiv, statistik tahlil va antropometrik taqqoslash usullari yordamida amalga oshirilgan.

Natija va tahlillar: Xorazm viloyatidaning ikkita subyekti ya'ni Urganch shahri va Shovot tumanining har biridan 20 nafar bolalar (10 nafar o'g'il bolalar, 10 nafar qiz bolalar) ishtirok etgan bo'lib, ularni ikki yosh guruhiga (12 yosh va 14 yosh) bo'lib o'rganildi (jami 40 nafar bolalar). Yig'ilgan bu ma'lumotlar asosida quyidagi natijalar tahlil qilindi va olindi.

Antropometrik ko'rsatkichlar (2024 $\Rightarrow$ 2025 yil)

Jadval 1.

Parametrlar	Urganch sh.	Shovot t.	Farqlar
O'rtacha bo'y (sm)	148.5 sm	154.9	+ 6.4 sm
O'rtacha tana vazni (kg)	43.0 kg	43.7	+0.7 kg
Indeks Ketle (kg/m ²)*	19.8	18.2	- 1.6

Ketle indeksi yoki tana massasi indeksi (TMI) - bu odamning bo'yiga nisbatan vaznining o'lchovidir, vazni (kg) bo'yi kvadratiga (m²) bo'linadi.

Jadvalga asoslansak Shovot tumani bolalarning bo'yi o'rtacha 6,4 sm uzunroq, lekin o'rtacha vazni Urganch shahar bolalari bilan deyarli bir xil bo'lib (0.7kg), ular nisbatan ingichka (kelishgan) tanaga ega.

Bir yil davomida o'zgarishlar dinamikasi (2024 $\Rightarrow$ 2025)

Jadval 2.

Ko'rsatkichlar	Urganch sh.	Shovot t.
O'rtacha bo'y o'sishi (sm)	+ 1.6 sm	+1.5
O'rtacha tana vazni o'sishi(kg)	+ 1.9 sm	+3.3
Tana o'sish tempi	4.3 %	7.5 %

Yosh dinamikasini solishtirganimizda quyidagicha bo'ldi:




Diagramma 1.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Natija yil davomida eng katta vazn ortishi 12 yoshli Shovot tumani (+3,7 kg) bolalarida kuzatildi, bu ularning Urganch shahar tengdoshlaridan deyarli 4 baravar yuqoriligini ko'rsatayapti.

Tana tiplarining taqsimlanishini tahlil qilish (2024 ⇒ 2025)

Jadval 3.

Tana tuzilishi tipi	Urganch sh.	Shovot t.
Astenik	40%	30%
Normostenik	50%	45%
Giperstenik	10%	25%

Tana turidagi gender farqlari

O'g'il bolalar:

Jadval 4.

Tana tuzilishi tipi	Urganch sh.	Shovot t.
Astenik	30%	20%
Normostenik	60%	50%
Giperstenik	10%	30%

Qiz bolalar:

Jadval 5.

Tana tuzilishi tipi	Urganch sh.	Shovot t.
Astenik	50%	40%
Normostenik	40%	40%
Giperstenik	10%	20%

Xulosa: Urganch shahrida astenik va normostenik tana tipidagi bolalar (90%), Shovot tumanida gipersteniklar salmog'i sezilarli darajada (25%), ayniqsa o'g'il bolalarda (30%) ko'p. Har ikki tumandagi bolalarning 85 foizi yoshga mos bo'lgan bo'y uzunligi oralig'ida, 78% bolalar o'z yoshi uchun normal vaznga ega. Urganch shahrida 65 foiz, Shovot tumanida 70 foiz bolalarning jismoniy rivojlanishi har tomonlama barqaror.

Tumanlar bo'yicha farqlarni solishtirib chiqadigan bo'lsak: Shovot tumani bolalarining bo'yi statistik jihatdan sezilarli darajada uzunroq va giperstenik tana turiga nisbatan ko'proq moyillik mavjud. Rivojlanish dinamikasiga ko'ra Shovot tumani bolalari bir yil davomida, ayniqsa, yosh guruhlarda kuchli vazn ortishini ko'rsatayapti. Tana tiplarini kuzatadigan bo'lsak Urganch shahrida astenik tana tipidagi bolalar ustunlik qiladi, bunga ovqatlanish odatlari yoki genetik omillarni faktor qilib ko'rsatish mumkin. Yosh xususiyatlariga ko'ra esa 14 yoshli bolalar 12 yoshli bolalarga nisbatan ham bo'y, ham vazn bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qiladilar.

O'tkazilgan tadqiqotga ko'ra tanlangan mavzuni yanada chuqurroq tahlil qilish uchun Xorazm viloyatining har ikkala subyektida (Urganch shahri va Shovot tumani) bolalar ovqatlanish omillari, jismoniy faollik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi, bu kuzatilgan farqlarni yanada tushuntirishga yordam beradi.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Логвина, Т. Ю. Диагностика и коррекция физического состояния детей дошкольного возраста: метод. рекомендации / Т. Ю. Логвина, В. Н. Шебеко, В. А. Шишкина. – Минск : Изд. В. М. Скакун, 1996. – 32 с
2. Муталиева Ш. Б. Социально-психологические характеристики формирования интеллектуальных способностей у дошкольников //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 11. – С. 117-121.
3. Нигматова Ф. У., Айдаркулова К. А., Исаева Д. Х. Исследование антропометрических показателей детей и подростков для проектирования школьной формы //Вестник Московского университета. Серия 23. Антропология. – 2021. – №. 1. – С. 32-41.
4. Прахин Е. И., Грицинская В. Л. Характеристика методов оценки физического развития детей //Педиатрия. Журнал им. ГН Сперанского. – 2004. – Т. 83. – №. 2. – С. 60-62.
5. Рахимов Б. Б. Особенности заболеваемости детей и подростков Республики Узбекистан, страдающих ожирением //Гигиена и санитария. – 2017. – Т. 96. – №. 3. – С. 274-277.
6. Алимарданова М. Гигиеническое обоснование рациональной организации физического воспитания детей младшего школьного возраста: дис. – Ташкентская медицинская академия, 2011.